ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA MUAMMOLARI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA

Ashurova Sitora Erkinovna
https://orcid.org/0009-0008-6488-7305
sita.ashurova@gmail.com
Renessans ta’lim universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek va ingliz leksikografiyasining dolzarb masalalari hamda ularning o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. Ingliz leksikografiyasida korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvlar va ingliz tilining global variativligi bilan bog‘liq muammolar alohida ahamiyat kasb etsa, o‘zbek leksikografiyasida terminologiyani standartlashtirish, neologizmlarni tezkor ravishda fiksatsiya qilish hamda elektron lug‘atlarni rivojlantirish masalalari yetakchi o‘rin tutadi. Maqolada mazkur muammolar ilmiy asosda ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etishning nazariy va amaliy yechimlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, korpus lingvistika, lug‘atshunoslik muammolari, elektron lug‘atlar, neologizmlar, terminologiya, standartlashtirish

PROBLEMS OF MODERN LEXICOGRAPHY: ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND ENGLISH

Ashurova Sitora Erkinovna
https://orcid.org/0009-0008-6488-7305
sita.ashurova@gmail.com
Renaissance University of Education

Abstract: This article provides a scientific analysis of current issues in modern Uzbek and English lexicography, including their similarities and differences. While English lexicography emphasizes approaches based on corpus linguistics and issues related to the global variability of the English language, Uzbek lexicography prioritizes issues of terminology standardization, the prompt recording of neologisms, and the development of electronic dictionaries. The article examines these issues from a scientific perspective and proposes theoretical and practical solutions for overcoming them.

Keywords: lexicography, corpus linguistics, lexicographic problems, electronic dictionaries, neologisms, terminology, standardization

(cc) BY

Kirish

Leksikografiya - lug‘atlar tuzishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganuvchi fan sifatida - hozirgi davrda sezilarli o‘zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Til taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelayotgan yangi birliklar, xalqaro kommunikatsiyadagi globallashuv, axborot texnologiyalarining rivoji hamda raqamlashtirish jarayonlari leksikografik faoliyatga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy leksikografiya dolzarb nazariy va amaliy masalalarni hal etishni talab qiladi.

Ingliz leksikografiyasida ko‘proq korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvlar, so‘zlarning global variativligi (Britaniya, Amerika, Avstraliya ingliz tili va boshqalar)ning leksik farqlarini inobatga olish, yangi birliklarning tezkor paydo bo‘lishi va ularning lug‘atlarda qayd etilish jarayoni markaziy muammo sifatida baholanadi [Atkins & Rundell, 2008, 112-bet]. Masalan, “Oxford English Dictionary” (OED) doimiy ravishda monitoring olib borib, neologizmlarni kuzatish uchun maxsus “watch-lists”dan foydalanadi, biroq bu jarayon tez sur’atda o‘zgarayotgan ijtimoiy-madaniy muhit sharoitida ko‘p vaqt talab qiladi.

O‘zbek leksikografiyasi esa o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan bo‘lib, hozirgi kunda milliy korpusning to‘liq shakllanmaganligi, terminologiyaning standartlashtirilmaganligi, neologizmlarni tezkor qayd qilish mexanizmlarining sustligi hamda elektron lug‘atlarning rivojlanish darajasining pastligi asosiy muammolar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi [Xamdamov, 2021: 114-116; Eshmuminov, 2019: 47-49]. Ayniqsa, texnika, axborot texnologiyalari va tibbiyot kabi sohalarda o‘zlashmalarning turlicha qo‘llanilishi bir xil normativ bazaning yo‘qligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, leksikografik an’analar va metodologiyalardagi farqlar ham ilmiy tahlilni talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi zamonaviy izohli lug‘atlar foydalanuvchi ehtiyojiga moslashgan, interaktiv elektron formatlarda yaratilayotgan bo‘lsa [Cabré, 1999, 34-bet], o‘zbek tilidagi lug‘atlarda hali ham bosma shakl ustuvor bo‘lib qolmoqda. Shu bois, ushbu maqolada zamonaviy ingliz va o‘zbek leksikografiyasining muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, ularning samarali yechimlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Asosiy qism

Ingliz va o‘zbek leksikografiyasining o‘xshash jihatlari

Avvalo, ingliz va o‘zbek leksikografiyasida umumiy jihatlar mavjud. Har ikkala til leksikografiyasi ham tilning lug‘aviy boyligini qayd etish, standartlashtirish va foydalanuvchi ehtiyojini qondirishni asosiy maqsad qilib olgan. Masalan, izohli lug‘atlar, tarjima lug‘atlari, terminologik lug‘atlar ham ingliz, ham o‘zbek tilshunosligida keng qo‘llanadi [Madvaliev, 2013, 61-bet]. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006) hamda “Oxford English Dictionary” (OED) tilning lug‘aviy

(cc) BY

boyligini qamrab olishga qaratilgan izohli lug‘atlar sifatida o‘xshashdir. Ikkala lug‘atda ham so‘zlarning etimologiyasi, semantik differensiallashuvi va uslubiy bo‘yoqlari izohlangan. Bundan tashqari, terminlarning tezkor fiksatsiyasi, yangi so‘zlarning lug‘at tarkibiga kiritilishi va ularning qo‘llanishini kuzatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [Karimov, 2020, 73-bet].

Ingliz leksikografiyasining o‘ziga xos jihatlari

Ingliz leksikografiyasi asosan korpus lingvistikasiga tayangan holda shakllanmoqda. Korpuslar yordamida lug‘at tarkibiga real qo‘llanish tezligi, uslubiy differensiallashuv va variantlarning (Amerika, Britaniya, Avstraliya ingliz tili) farqlari kiritiladi. Masalan, “Collins COBUILD English Dictionary” ingliz tilida eng birinchi korpusga asoslangan izohli lug‘at hisoblanadi. Bu lug‘atda so‘zlar real matnlardan (gazetalar, romanlar, suhbatlar) olingan millionlab korpus namunalariga tayangan holda izohlangan. Shu bois, foydalanuvchi so‘zning nafaqat lug‘aviy ma’nosini, balki real nutqdagi qo‘llanishini ham ko‘rishi mumkin [Atkins & Rundell, 2008, 145-bet].

Yana bir misol sifatida, ingliz tilidagi global variantlar lug‘atlarda alohida qayd etiladi. Masalan, “Cambridge English Dictionary”da “apartment” (Amerika inglizchasi) va “flat” (Britaniya inglizchasi) sinonim sifatida beriladi, foydalanuvchiga geografik farqi ham ko‘rsatiladi. Bu yondashuv ingliz tilining global xususiyatini aks ettiradi va foydalanuvchiga real til tafovutlarini tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ingliz lug‘atlari ko‘pincha foydalanuvchi markazida tuziladi. Elektron lug‘atlar mobil ilovalar va onlayn platformalar ko‘rinishida tez-tez yangilanib boradi, bu esa til o‘zgarishlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi [Cabré, 1999, 34-35-betlar].

O‘zbek leksikografiyasining o‘ziga xos jihatlari

O‘zbek leksikografiyasida esa hali bosma lug‘atlar yetakchi o‘rinda turadi. Elektron lug‘atlar yaratilsa-da, ular keng foydalanuvchi auditoriyasiga yetib bormagan. Shuningdek, asosiy muammo sifatida terminlarning standartlashtirilmaganligi va turli lug‘atlarda bir xil atamaning turlicha izohlanishi qayd etiladi [Madvaliev, 2013, 84-bet]. Yana bir dolzarb masala neologizmlarning tezkor fiksatsiya qilinmayotganidir. Masalan, so‘nggi o‘n yillikda texnologiya va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq ko‘plab yangi so‘zlar paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning barchasi hali hamma izohli lug‘atlarda o‘z aksini topmagan. [Karimov, 2020, 72-73-betlar]. Masalan, “smartfon”, “onlayn dars”, “ilova” kabi yangi birliklar ko‘plab ommaviy axborot vositalarida keng qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, ularning ba’zilari so‘nggi izohli lug‘atlarga hali kiritilmagan. Bu esa amaliy ehtiyoj bilan ilmiy standart o‘rtasida uzilishlar borligini ko‘rsatadi

Qiyosiy tahlil

(cc) BY

Taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ingliz leksikografiyasida asosiy e’tibor foydalanuvchi ehtiyoji va korpus asosidagi real nutq materialini qamrab olishga ya’ni so‘zlarning real qo‘llanish kontekstini ochib berishga qaratilgan. Masalan, ingliz lug‘atlarida “greenhouse” so‘zi nafaqat “issiqxona” ma’nosida, balki ekologik muhokamalarda “greenhouse gases” (issiqxona gazlari) kabi barqaror birikmalarda ham qayd etiladi. O‘zbek lug‘atlarida esa ko‘pincha faqat asosiy leksik ma’no berilib, kengroq kontekstlar ko‘rsatib o‘tilmaydi.

Boshqa tomondan, o‘zbek leksikografiyasi normativlikni ta’minlash orqali til birliklarining yagona standartda qo‘llanishiga xizmat qiladi. Masalan, “xalqaro so‘zlar” bo‘yicha olib borilgan lug‘at ishlari natijasida ayrim terminlar (masalan, biologiya, matematika, informatika) bir xil shaklda rasmiylashtirildi va til tizimiga singdirildi. Ingliz tilida esa bunday qat’iy normativlik talab etilmaydi, chunki tilning global variantlari o‘ziga xos shaklda qo‘llanadi [Atkins & Rundell, 2008, 147-bet].

Xulosa

Zamonaviy leksikografiya tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatdan eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek leksikografiyasi o‘z oldiga qo‘ygan umumiy vazifalar jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, metodologiya va yondashuvlarda sezilarli farqlarga ega. Ingliz leksikografiyasi foydalanuvchi markaziga yo‘naltirilgan, korpus lingvistikasiga asoslangan va global variantlarni qamrab oluvchi tizim sifatida shakllangan [Atkins & Rundell, 2008, 145-147-betlar]. O‘zbek leksikografiyasida esa asosiy vazifa terminologiyani standartlashtirish, neologizmlarni fiksatsiya qilish hamda bosma va elektron lug‘atlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishdan iboratdir [Madvaliev, 2013, 84-bet; Karimov, 2020, 72-73-betlar].

Misollar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi “apartment/flat”, “greenhouse gases” kabi birliklar global va kontekstual farqlarni aks ettirsa, o‘zbek tilida “kompyuter qurilmasi” va “mobil ilova” kabi terminlarning izohlanishidagi turlicha yondashuvlar muammo sifatida qolmoqda. Demak, ingliz leksikografiyasining korpusga asoslangan interaktiv metodologiyalari o‘zbek tilshunosligi uchun ham samarali bo‘lishi mumkin.

Shu bois, o‘zbek leksikografiyasida quyidagi yo‘nalishlarda ishlash muhim:

1. “Korpus asosidagi lug‘atlar yaratish” - so‘zlarning real qo‘llanishini kuzatish va lug‘atlarni tezkor yangilash imkonini beradi.

2. “Elektron leksikografiyani rivojlantirish” - mobil va onlayn platformalarda keng qamrovli lug‘atlar yaratish foydalanuvchi ehtiyojini qondiradi.

3. “Terminologiyani standartlashtirish” - turli lug‘atlardagi tafovutlarni bartaraf etib, yagona normativ tizimni shakllantirish imkonini beradi.

4. “Neologizmlarni tezkor qayd etish” - tilning rivojlanish sur’atiga moslashish uchun muhimdir.

(cc) BY

Xulosa qilib aytganda, ingliz leksikografiyasining tajribasi, xususan, korpus lingvistikasiga asoslangan metodologiya va foydalanuvchi markaziy yondashuvlari o‘zbek leksikografiyasida tatbiq etilsa, mavjud muammolar samarali hal etilishi mumkin. Shu bilan birga, o‘zbek leksikografiyasining normativlik va standartlashtirishga qaratilgan yondashuvlari ham ingliz tajribasiga nazariy jihatdan qo‘shimcha ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atkins, B. T. S., & Rundell, M. (2008). The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford University Press. - 145-147-betlar.

2. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins. - 34-35-betlar.

3. Eshmuminov, A. (2019). Problems of Creating National Corpus of the Uzbek Language (Level of Synonyms).Theoretical & Applied Science, 05(73), 47-50.

4. Karimov, B. (2020). Bog‘dorchilik asoslari. Toshkent. - 72-73-betlar.

5. Madvaliev, A. (2013). O‘zbek leksikografiyasi masalalari. Toshkent: Fan. - 61, 84-betlar.

6. Prcić, T. (2020). Teaching Lexicography as a University Course: Theoretical, Practical and Critical Considerations. SciELO, 206-211.

7. Xamdamov, R. (2021). Development of Educational Lexicography and Educational Dictionaries in the English and Uzbek Languages. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 109-116.

(cc) BY